2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 229 (1290), 2024-yil 12-noyabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SAMMITDA GLOBAL VA MINTAQA DARAJASIDA SAMARALI MEXANIZM VA ANIQ YECHIMLAR TEZROQ HAYOTGA JORIY ETILISHIGA ISHONCH BILDIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ikki muqaddas masjid xodimi – Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan 11-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Ar-Riyod shahrida bo‘ldi.





Podshoh Xolid nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Ar-Riyod viloyati rahbariyati — shahzoda Muhammad bin Abdurahmon bin Abdulaziz va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev navbatdan tashqari arab-islom sammitida nutq so‘zladi.

Saudiya Arabistoni raisligida o‘tgan tadbirda Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo, Afrika qit’asining yetakchi mamlakatlarining davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, xalqaro hamjamiyatning G‘azo va Livandagi keskinlikni kamaytirish, yuzaga kelayotgan vaziyatni tez fursatda siyosiy yo‘l bilan hal etishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari global siyosat kun tartibidagi eng o‘tkir va og‘riqli masala — Falastin muammosiga bag‘ishlangan sammitni tashkil etgani uchun Ikki muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud hamda Valiahd Muhammad bin Salmon Ol Saudga alohida minnatdorlik bildirdi.

2023-yili Ar-Riyod shahridagi yig‘ilishdan keyin o‘tgan vaqt mobaynida ushbu urush ko‘lami yanada kengayib, Livan hududini ham qamrab olgani afsus bilan qayd etildi.

Prezidentimiz Falastin-Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatladi.

Mazkur sammitda global va mintaqa darajasida samarali mexanizmlar va aniq yechimlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilishiga ishonch bildirildi.

Harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ta’minlash va tinchlik muzokaralarini boshlash masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xavfsizlik Kengashining doimiy e’tibor markazida turishi zarurligi qayd etildi.

Qadimiy va boy tarixga ega falastin xalqi 1967-yildagi chegaralar doirasida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil va ozod davlatini tuzishga to‘la haqli ekani ta’kidlandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ARAB-ISLOM SAMMITIDAGI NUTQI

Bismillahir rahmonir rahim!

Hurmatli rais janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Global siyosat kun tartibidagi eng o‘tkir va og‘riqli masala — Falastin muammosiga bag‘ishlangan bugungi muhim sammitimizni tashkil etganlari uchun Ikki muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud A’lo Hazratlariga hamda Valiahd va Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saud Hazrati Oliylariga alohida minnatdorlik bildiraman.

Ming afsuski, 2023-yili Ar-Riyod shahridagi tarixiy yig‘ilishdan keyin o‘tgan vaqt mobaynida ushbu adolatsiz va qonli urush ko‘lami yanada kengaydi.

Dunyo hamjamiyatining qat’iy harakat va chaqiriqlariga qaramasdan, xalqaro me’yorlar va rezolyutsiyalarning qo‘pol ravishda buzilishi davom etmoqda. Urush olovi endilikda Livan hududini ham qamrab olgani barchamizni qattiq larzaga solmoqda.

Hamkasblarim o‘z nutqlarida aytib o‘tganlaridek, ming-minglab begunoh bolalar, ayollar va keksalar o‘limiga sabab bo‘layotgan bu vayronkor va mudhish hujumlar insoniyat yangi tarixining eng qora sahifasiga aylanmoqda.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlari, maktab va shifoxonalar, masjidlar, butun boshli shaharlar yo‘q qilib tashlanayotgani, millionlab tinch aholi boshpanasiz qolib, ocharchilik va kasalliklarga mahkum bo‘layotganini iztirobsiz kuzatish mumkin emas.

Eng yomoni, hammamiz guvoh bo‘layotganimizdek, ushbu fojiaga nisbatan xalqaro maydonda ikki xil standartlar asosida yondashilmoqda. Bu esa urushning keng yoyilib ketish ehtimolini keskin oshirmoqda, xalqaro xavfsizlikka jiddiy raxna solmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

O‘zbekiston Falastin — Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu borada bugungi sammitimizda umumiy siyosiy iroda va birdamlikni namoyon etib, global va mintaqa darajasida samarali mexanizmlar va aniq yechimlar ishlab chiqib, hayotga tezroq joriy etilishiga ishonamiz.

Gap, **eng avvalo,** Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xavfsizlik Kengashining mazkur ko‘p yillik nizoni hal etishdagi o‘rni va ta’sirini tubdan oshirish haqida bormoqda.

Harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ta’minlash va eng asosiysi — tinchlik muzokaralarini boshlash masalalari bu universal xalqaro tuzilmaning doimiy e’tibor markazida turishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, 15-noyabr kuni jafokash Falastin xalqi o‘z milliy bayrami — Falastin Davlati e’lon qilingan kunni nishonlaydi.

Aminmanki, bu qadimiy va boy tarixga ega xalq 1967-yildagi chegaralar doirasida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil va ozod davlatini tuzishga to‘la haqlidir. Bu borada biz Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan tashkil etilgan Ikki davlat yechimi uchun global alyans faoliyatini har tomonlama ma’qullaymiz.

Uchinchidan, Falastin va Livan hududidagi mislsiz gumanitar inqirozning oldini olish maqsadida davlatlarimiz tomonidan hamda yetakchi xalqaro tashkilotlar doirasida yordam ko‘lamini kengaytirishimiz lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining katta tajribaga ega bo‘lgan Maxsus agentligi va boshqa institutlari faoliyatiga zaruriy ko‘makni oshirish tarafdorimiz.

Shu o‘rinda biz urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz davolashga tayyorligimizni bildiramiz.

Biz Falastin xalqiga amaliy yordam ko‘rsatish masalalarini kelgusi yili Samarqandda o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari — Markaziy Osiyo” sammitida ham muhokama qilish niyatidamiz.

To‘rtinchidan, Islom hamkorlik tashkiloti doirasida muqaddas Al-Aqso masjidi, Quddusdagi boshqa noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalariga katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bugungi favqulodda uchrashuvimiz Yaqin Sharq muammosini hal etishda katta qadam bo‘ladi, deb umid qilaman.

Alloh taolodan jahonda tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik ne’matini ziyoda etishini va ummatimiz ahilligini yanada mustahkam qilishini so‘rab qolaman.

O‘ZBEKISTON BARQAROR KELAJAK YO‘LIDA:

EKOLOGIK TASHABBUSLAR VA XALQARO HAMKORLIK



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-13-noyabr kunlari Boku shahrida bo‘lib o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi doirasidagi Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha jahon sammitida ishtirok etadi.



Konferensiyada, shuningdek, 200 ga yaqin mamlakatdan davlat, hukumat rahbarlari va vazirlar darajasidagi delegatsiyalar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ekspert, ilmiy va jamoat doiralari vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

Tadbir 1992-yilda qabul qilingan va dunyoning deyarli barcha davlatini qamrab olgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi (COP29) ishtirokchilarining 29-konferensiyasi doirasida tashkil etilmoqda. Kioto protokoli va Parij kelishuvi ushbu konvensiya asoslari va rivojlanishi bo‘yicha qabul qilingan hujjatlardir.

Davomi 2-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

SPORTDA ENG MUHIMI – TIZIM, TARTIB, TEMIR INTIZOM VA NATIJA

Ijro intizomi davlat organlari va tashkilotlari ish samaradorligini ta’minlovchi muhim hamda asosiy faoliyat ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu bois, barcha sohalardagi kabi sportda ham islohotlar samarali kechishi, birinchi navbatda, vazirlikning barcha bo‘g‘inlarida ijro intizomi zarur darajada tashkil etilishi bilan bog‘liq. Hozir har jabhada, har sohada tub yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bunda har birimizdan o‘z vazifamizga vijdonan yondashish, Prezidentimiz ilgari surayotgan tamoyillarni, topshiriqlarni so‘zsiz bajarish talab etiladi.

O‘zbekiston Prezidentining **2021-yil 10-fevraldagi** “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **farmoni** va **2021-yil 31-maydagi** “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **qarori** qabul qilinishi har qanday davlat organlari va tashkilotlari ish samaradorligini ta’minlashda hamda qat’iy intizom o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va Markaziy Osiyo ekotizimini himoya qilishga qaratilgan xalqaro ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 12-noyabr, 229-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SAMMITDA GLOBAL VA MINTAQA DARAJASIDA SAMARALI MEXANIZM VA ANIQ YECHIMLAR TEZROQ HAYOTGA JORIY ETILISHIGA ISHONCH BILDIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Shu ma’noda, Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan tashkil etilgan Ikki davlat yechimi uchun global alyans faoliyati qo‘llab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, Falastin va Livan hududidagi gumanitar inqirozning oldini olish maqsadida yetakchi davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Maxsus agentligi doirasida yordam ko‘lamini kengaytirish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz davolashga tayyor ekanini ta’kidladi.

Falastin xalqiga amaliy yordam ko‘rsatish masalalarini kelgusi yili Samarqandda o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari — Markaziy Osiyo” sammitida ham muhokama qilish niyati bildirildi.

Prezidentimiz muqaddas Al-Aqso masjidi, Quddusdagi boshqa noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv Yaqin Sharq muammosini hal etishda katta qadam bo‘lishiga umid bildirdi.

Muhokamalardan so‘ng tomonlar mojaroning siyosiy-diplomatik yechimini jadal izlashga sodiqligini tasdiqlovchi qo‘shma rezolyutsiya qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi Valiahdi, Bosh vaziri Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Saudiya ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ar-Riyoddagi favqulodda sammit o‘z vaqtida tashkil etilgani va dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Turli darajalardagi faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni oshib bormoqda.

“Yashil” energetika, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kommunikatsiyalar sohasida, qishloq xo‘jaligi, sanoatda yangi qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga, shu jumladan, 2025-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari — Markaziy Osiyo” ikkinchi sammitiga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv davomida O‘zbekiston yetakchisi fuqarolarimizning Haj va Umra ziyoratlarini ado etishlariga yaratilgan sharoitlar uchun Saudiya Arabistoni rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

Mintaqaviy masalalar, jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu kuni davlatimiz rahbari Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saudni qabul qildi.

Qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish va “yashil” energetika sohasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston energetika sohasini to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotgan yetakchi “ACWA Power” kompaniyasi bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidladi.

Mamlakatimiz hududlarida shamol va quyosh elektr stansiyalarini qurish, shuningdek, “yashil” vodorod ishlab chiqarish loyihalarini tezlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda mahalliylashtirish va korxonalar energiya samaradorligini oshirish jarayonlariga Saudiya Arabistoni kompaniyalari va maslahatchilarini jalb etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni investitsiyalar vaziri Xolid al-Falihni qabul qildi.

Oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi doirasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, eng avvalo, O‘zbekistonda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik jadal rivojlanayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, kooperatsiya ko‘lami va aviaqatnovlar soni ortib bormoqda. Joriy yil yakuni bilan yurtimizga Saudiya Arabistoni kompaniyalarining qariyb 2,5 milliard dollarlik investitsiyalari jalb etilishi kutilmoqda.

O‘zaro manfatli sohalarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Shu bilan Ar-Riyodga amaliy tashrif doirasidagi tadbirlar yakunlandi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Boku shahriga keldi.

Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturida O‘zbekiston yetakchisining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) tadbirlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan bir qator uchrashuvlar o‘tkazadi.

COP29 doirasida delegatsiyamiz tomonidan yerlarning tanazzulga uchrashi va cho‘llanishga qarshi kurashish, ekologik ta’limni rivojlantirish hamda iqlim kun tartibini ilgari surishda yoshlarning o‘rniga bag‘ishlangan yuqori darajadagi tadbirlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining maxsus tashkil etilgan Milliy pavilyonida Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy-ekologik muammolarini hal etish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya va suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bioxilma-xillikni asrash va boshqa yo‘nalishlarda 20 dan ortiq qo‘shimcha tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

O‘zA

O‘ZBEKISTON BARQAROR KELAJAK YO‘LIDA:

EKOLOGIK TASHABBUSLAR VA XALQARO HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston 1993-yil 20-iyunda BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasiga qo‘shilgan, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan. 2017-yilda Parij bitimini imzolash orqali O‘zbekiston qator majburiyatlarni, jumladan, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi darajadan 35 foiz kamaytirish bo‘yicha asosiy majburiyatlarni zimmasiga oldi.

BMT hadli konvensiyasi ishtirokchisi sifatida O‘zbekiston iqlim bo‘yicha muntazam hisobotlar tayyorlaydi va konvensiya kotibiyatiga taqdim etadi. Shuningdek, milliy ma’ruza, ikki yillik hisobotlar, moslashish rejalari, milliy miqyosda belgilangan badallarni ishlab chiqadi va yangilaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-dekabr kuni Dubayda bo‘lib o‘tgan COP28 oliy darajadagi segmentida so‘zlagan nutqida iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha mamlakatning pozitsiyasi, dekarbonizatsiya, iqlim o‘zgarishiga moslashish, Orol dengizi ekotizimini saqlash va tiklash bo‘yicha hamkorlikka doir chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot berdi.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va Markaziy Osiyo ekotizimini himoya qilishga qaratilgan xalqaro ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Asosiy vazifalardan biri jiddiy zarar yetgan Orol dengizini ekotizimini tiklashdir. O‘zbekiston BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Undan maqsad ushbu mintaqani iqlim o‘zgarishiga chidamli hududga aylantirishdir.

O‘zbekiston CO_2 chiqindisini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik ta’limni rivojlantirish maqsadida UNESCO bilan “Yashil ta’lim” dasturi bo‘yicha hamkorlik qilish tarafdori.

COR28 va boshqa uchrashuvlarda mamlakat atrof-muhit muammolarini birgalikda hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha umumiy standartlar yaratish uchun mintaqadagi mamlakatlarni birlashtirgan “Bir mintaqa, bir ovoz” strategiyasini taqdim etdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga, xususan, “yashil” energiyani rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish orqali erishish majburiyatini oldi. Uglevodorodlarga qaramlikni kamaytirish uchun quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish loyihalari shular jumlasidan.

2022-yilda Toshkentda Global yashil rivojlanish instituti (GGGI) ofisi ochildi. Bu ushbu tashkilotning MDH va Markaziy Osiyodagi birinchi vakolatxonasi. GGGI mamlakatlarning “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va iqlim tashabbuslari orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga o‘tishini qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir.

Institutning O‘zbekistondagi faoliyatidan asosiy maqsad iqlim o‘zgarishi sharoitida mintaqaning barqaror rivojlanishi va ekologik tiklanishiga ko‘maklashishga qaratilgan. Muhim dasturlaridan biri Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan moliyalashtirilgan Orolbo‘yi hududida “Yashil qoplamalar” barpo etish loyihasi bo‘ldi. Ushbu loyiha Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq ekologik inqiroz oqibatlarini yengib o‘tish va Qoraqalpog‘istonda “yashil” texnologiyalar va barqaror dehqonchilik usullari orqali aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Iqlim dasturi boshqa xalqaro formatlar doirasida ham faol ravishda ilgari surilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari SHHT doirasida dekarbonizatsiya va “toza” texnologiyalarni joriy etish, “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va suvni tejash masalalarida muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi.

5-6-noyabr kunlari Bishkekda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida O‘zbekiston yetakchisi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq dolzarb ekologik muammolarga yechim topish uchun vazirlar darajasida Turkiy ekologik kengash tuzishni tezlashtirishni taklif qildi.

Bu tashabbuslarning barchasi O‘zbekistonning xalqaro ekologik sa’y-harakatlarga o‘z hissasini qo‘shish hamda mintaqa va butun sayyoramiz uchun yanada barqaror kelajakni ta’minlashga sodiqligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Prezidentining Bokuda bo‘lib o‘tadigan tadbirda ishtirok etishi mamlakatimizning “yashil” o‘sish va rivojlanishga sodiqligini, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirishga tayyorligini hamda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni to‘liq bajarishini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA



SAMARQAND DEKLARATSIYASI BMT BOSH ASSAMBLEYASINING RASMIY HUJJATI SIFATIDA TARQATILDI



O‘zbekiston tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiya deklaratsiyasi BMT Bosh Assambleyasi rasmiy hujjati sifatida ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillarida tarqatildi.

O‘zbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi ma’lumotiga ko‘ra, hujjat tashkilot jurnalida uning barcha rasmiy tillarida e’lon qilingan hamda a’zo davlatlar va tashkilotning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida keng tarqalgan.

BMTning rasmiy hujjati 2024-yil 2-5-oktabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiyasining Samarqand deklaratsiyasiga asoslanadi.

Unda mahallaning jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minlash, yoshlar o‘rtasida insonparvarlik qadriyatlarini targ‘ib etish, avlodlar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga beqiyos hissa qo‘shayotgan noyob institut sifatidagi faoliyati batafsil yoritilgan.

BMT tomonidan e’lon qilingan materialda yangi O‘zbekistonda mahallaning jamiyatdagi mavqeini oshirish, rolini kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan izchil hamda tizimli islohotlar, shuningdek, uning aholi muammolarini hal etishda asosiy va muhim bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlash bo‘yicha vazifalar qayd etilgan.

Ayniqsa, mahalla bugungi kunda jamiyatning barcha jabhalarini islohotlarni amalga oshirishga safarbar etuvchi faol va ta’sirchan ijtimoiy tuzilmaga, aholi o‘z fikr-mulohazalarini, takliflarini, muammolarini izhor etish, yechim topish uchun qulay maskanga aylangani alohida ta’kidlanadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash orqali kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali xotin-qizlarni, yoshlarni, jamiyatning barcha qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda mahallalarning muhim o‘rin tutishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

BMT hujjatiga ko‘ra, mahallaning BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytirish zarur. BMT tuzilmalari, jamg‘armalari va dasturlarida mahallaga ushbu mamlakatda bolalar uchun bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi narsalar uchun asosiy manzil va Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirish uchun kuchli platforma sifatida qaralishi ta’kidlandi.

“UNICEF mahallani o‘g‘il-qizlar, jumladan, nogiron bolalar sog‘lom ulg‘ayishi, to‘g‘ri ovqatlanishi, toza suv va sanitariya sharoitlari, bezorilik va zo‘ravonliklardan xoli yashashi, toza havodan nafas olishi mumkin bo‘lgan xavfsiz muhit sifatida ko‘radi. BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi mahallalarni fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e’tirof etib, ularni adolat tamoyillariga asoslangan dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi”, deyiladi hujjatda.

Xalqaro tashviqotni kuchaytirish va jahon hamjamiyatini mahallaning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bilan yaqindan tanishtirish va xalqaro o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

“Dunyo” AA

Nyu-York

Qonunchilikda yangilik

OLTIN BIZNESI

BU SOHADA QONUNIY FAOLIYAT CHO‘NTAKKA DAROMAD, UMRGA BAROKAT KELTIRADI

Zaminimiz foydali qazilmalarga boy. Xususan, qimmatbaho metallar, uglevodorodlar, qimmatbaho rangli toshlar, radioaktiv metallar, qora metall, tog‘-kimyo xomashyosi, ko‘mir va yonuvchi slaneslar, qurilish materiallari kabi foydali qazilmalar olinadigan ko‘plab konlar bor. Hozir tadbirkorlik subyektlari tomonidan tegishli ruxsatnomalar asosida 2 mingdan ziyod foydali qazilma qazib olinmoqda.



Ayniqsa, qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish rivojlanyapti. Tadbirkorlikning bir turi sifatida mazkur faoliyatning ham huquqiy asoslari yaratildi. “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, tadbirkorlik tavakkalchiligi asosida qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida kovlab olishni amalga oshirish maqsadida yer qa’ri uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. 2019-2023-yillar mobaynida qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyati uchun jami 302 ta ruxsatnoma rasmiylashtirilgan.

— Ko‘rilayotgan choralarga qaramay, qimmatbaho metallarni noqonuniy qazib olish holatlari hamon kuzatilyapti, — deydi Oliy Majlis Senati Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Botir Matmurodov. — O‘tgan bir yilda qimmatbaho metallarni noqonuniy yo‘l bilan qazib olish bilan bog‘liq 100 dan ziyod holat aniqlangan. Jizzax, Samarqand, Navoiy va Toshkent viloyatlarida jami 79 nafar jismoniy shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Achinarlisi, ushbu noqonuniy xatti-harakatlar natijasida Navoiy viloyatining Xatirchi, Konimex tumanlarida 8 fuqaro tuproq bosib qolishi oqibatida vafot etgan. Bunday noxushliklar haqida muntazam xabar berilayotgani va ogohlantirishlarga qaramay, qimmatbaho metallarni noqonuniy qazish davom etayotgani mazkur qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

> **“ Kodeksda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish huquqbuzarligi bo‘yicha jazo chorasini qo‘llash vakolati olib tashlandi. Ya’ni endi inspeksiya mazkur huquqbuzarlik yuzasidan faqat bayonnoma rasmiylashtiradi va belgilangan tartibda ishni sudga oshiradi.**

Shu yil 28-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga yerni va yer osti boyliklarini asrab qolishga hamda muhofaza qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun aynan shunga qaratilgan.

Qonun bilan Jinoyat kodeksi yangi moddalar bilan to‘ldirilib, foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Bunday harakatlar ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin qayta sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblashning 100 baravari miqdoridagi jarimadan tortib, to 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha bo‘lgan jazo choralari ko‘riladi.

Ayni paytda foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olish to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlikka olib kelishi belgilanib, bunda ham bazaviy hisoblashning 100 baravari miqdoridagi jarimadan tortib, 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha bo‘lgan qat’iy jazo choralari belgilandi.

Jinoyat-protsessual kodeksga kiritilayotgan normada mazkur jinoiy qilmishlar yuzasidan surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari ichki ishlar organlari tomonidan olib borilishi nazarda tutilgan.

Foydali qazilmalarni oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilanayotgani sababli ushbu huquqbuzarlik uchun javobgarlik Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdan chiqarildi va mos ravishda foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olganlik uchun ushbu kodeksda nazarda tutilgan normaning sanksiyasi og‘irlashtirildi.

Kodeksda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish huquqbuzarligi bo‘yicha jazo chorasini qo‘llash vakolati olib tashlandi. Ya’ni endi inspeksiya mazkur huquqbuzarlik yuzasidan faqat bayonnoma rasmiylashtiradi va belgilangan tartibda ishni sudga oshiradi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan muhim yangiliklardan yana biri — yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, bunday uchastkalarda qurilish qilish, shuningdek, yer berish tartibini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma’muriy chora ko‘rish yuzasidan ichki ishlar organlariga zarur vakolatlar berildi.

Qonunchiligimizdagi ushbu yangiliklar yer va yer osti boyliklarini asrash, mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirdi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

2024-yil 12-noyabr, 229-son

SPORTDA ENG MUHIMI – TIZIM, TARTIB, TEMIR INTIZOM VA NATIJA



Adham IKROMOV,
O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri

Boshlanishi 1-betda

Mazkur hujjatlar topshiriqlar **ijrosini samarali tashkil etish** va **tahlil qilishning ta’sirchan tizimi**ni yaratish, **tarmoq** va **hududiy rivojlanish** dasturlarida belgilangan vazifalarni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining **shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadiga qaratilgan**.

Bugungi kunda yuqoridagi hujjat ijrosini ta’minlash hamda ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha vazirlikda qator ishlar qilinmoqda. Xususan, qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish maqsadida **“Ijro.gov.uz”** elektron tizimidagi topshiriqlarni amalga oshirish mexanizmlarini muhokama etish yuzasidan har hafta muhokamalar o‘tkazilib kelinmoqda.

Jumladan, ijro intizomi masalasini **har haftaning juma kuni vazir o‘rinbosarlari huzurida, dushanba kunlari vazir huzurida tizimli ravishda** muhokama qilib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Ijro intizomini yanada mustahkamlash va 2024-yildagi ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha topshiriqlarning **kunbay tahlili tasdiqlangan kalendar grafiklar asosida** olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarning asosiy funksiyasi davlat boshqaruvini tartibga solish, qabul qilinayotgan hujjatlarning so‘zsiz va **o‘z muddatida ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilgani** bilan ahamiyatli bo‘lmoqda. Qonun hujjatlari ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanmasligi taraqqiyotimiz ravnaqiga, xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazadi, albatta.

Shunday ekan, bugun barcha vazirlik, idoralar va hokimliklar uchun **ijro intizomini ta’minlash** g‘oyat muhim maqsad va vazifa sanaladi.

Avvalo, davlatimiz rahbari tomonidan imzolanayotgan farmonlar, qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mamlakat taraqqiyoti, **xalq manfaati va fuqarolar farovonligini ta’minlash maqsadi** ko‘zda tutilganini alohida e’tirof etish joiz.

So‘nggi yillarda sport yo‘nalishida ham keng ko‘lamli islohotlar kechmoqda. Sohada Prezident va hukumat qarori hamda topshiriqlarida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha nazoratni kuchaytirish, mas’uliyat va javobgarlik hissini, ayniqsa, rahbarlarning shaxsiy javobgarligini oshirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, so‘nggi uch yil davomida Prezidentning sport sohasiga oid **76 ta farmoni, qarori** va **hukumat qarorlari** qabul qilinib, **sohani rivojlantirish** bo‘yicha **bir necha yo‘nalishlarda tegishli** ishlar qilinmoqda. Sport ta’limi tizimini takomillashtirish, ommaviy sport, sport infratuzilmasi, olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish hamda sohani raqamlashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Shundan kelib chiqib, vazirlik markaziy apparatida topshiriqlarni bajarish bo‘yicha **KPI tizimi** ishlab chiqilgan bo‘lib, unda xodimlar o‘zlariga yuklatilgan vazifalarning natijadorligi asosida rag‘batlantirib boriladi. Ushbu tizim hozirgi kunda yanada takomillashtirilib, hududiy tuzilmalar va tizim tashkilotlariga joriy qilish bo‘yicha tashkiliy ishlar bajarilmoqda.

So‘nggi yillarda davlat va jamiyat boshqaruvidagi samarali islohotlar, zamonaviy boshqaruv uslublari keng ko‘lamda tatbiq etilishi, nazorat va ijroni yuritish shakllari takomillashgani kabi qator ishlar, davlat boshqaruvi tizimidagi turli bo‘g‘in rahbarlari shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan qat’iy chora-tadbirlar **yoshlar va sport sohasidagi muhim vazifalarni bajarish imkonini berayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda**.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni puxta ishlab chiqish hamda qabul qilishning ta’sirchan amaliyotini shakllantirish, ularni aniq ijrochilar, keng jamoatchilik, shuningdek, aholiga tezkor yetkazish, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish, joriy, o‘rta muddatli va istiqboldagi vazifalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha shoshilinch, tezkor choralar ko‘rish bo‘yicha amaliy harakatlar yuqorida qayd etilgan hujjatda aniq belgilab berilgan.

Qo‘yilgan vazifalar o‘z vaqtida bajarilishining samarali usuli zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishdir. Elektron muhitda hujjatlar almashinuvini yanada faollashtirish ortiqcha qog‘oz, vaqt va boshqa moliyaviy isrofgarchiliklarning oldini olish barobarida belgilangan vazifalarning ijrochiga o‘z vaqtida yetib borishini hamda xalqning muammosi o‘z vaqtida hal etilishini ta’minlaydi.

> **ASOSIY VAZIFAMIZ IJRO INTIZOMINI TA’MINLASH, HAR BIRIMIZ O‘Z VAZIFAMIZGA SIDQIDILDAN YONDASHISH HAMDA “SPORTDA ENG MUHIMI — TIZIM, TARTIB, TEMIR INTIZOM VA NATIJA” SHIORI BILAN HAR KUNLIK ISH JARAYONIMIZNI TASHKIL ETISHIMIZ ZARUR.**



Bugungi kunda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi amalda nazorat qilinishi tashkil etilgan bo‘lib, bunda vazirlik hamda uning tizim tashkilotlarida ishlarning real holatini tanqidiy o‘rganish, shuningdek, elektron ma’lumotlar bazasi asosida **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida o‘z vaqtida hisobot berilishiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidentning hujjatlari va topshiriqlarini o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq ijro etilishi yuzasidan **“texnologik zanjir”** asosida **Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi** va **Hisob palatasi** bilan birgalikda tizimli ishlar qilinmoqda.

Qonun hujjatlari va yuqori turuvchi organlar topshirig‘i ijrosining o‘z vaqtida bajarilishi bo‘yicha javobgarlik vazirlikning barcha bo‘g‘inlari rahbarlariga yuklatildi.

Shu bilan birga, soha mutaxassislariga ijro intizomining ahamiyati va zarurati haqida bilimi, hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha malakasini oshirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar muntazam o‘tkazib borilmoqda.

Sport vazirligi mas’ul bo‘lgan hujjatlar va topshiriqlar tahlil qilinganda, **2024-yil**ning **yanvar-oktabr** oylari davomida **“Ijro.gov.uz”** elektron tizimida nazoratga olingan **jami 866 ta** topshiriqning ijrosi **o‘z vaqtida ta’minlangani ko‘rinadi.**

Shuningdek, **2024-yil noyabr-dekabr** oylarida muddati keladigan topshiriqlar jami **415 ta**ni tashkil etib, shundan bugungi kunda **95 ta**si bajarilgan, **320 ta**sining ijrosini **joriy yil 20-dekabrga qadar** bajarish choralari ko‘rilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar **Sport vazirligi tizimida** qanchalik samara berayotgani haqida to‘xtalib o‘tsak.

So‘nggi 2 yilda sport infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan hamda olis va chekka hududlardagi mahallalarda namunaviy tipdagi **mingga yaqin sport maydonchasi** barpo etildi, joriy yilda **400 tasi** qurilib, foydalanishga topshirildi.

2024-yil yakuniga qadar ommaviy sportdagi yoshlar **qamrovini 10 millionga yetkazish** uchun umumta’lim **maktablari**ning **3,5 million**, **oliy va professional ta’lim** tizimida **qariyb 1,5 million o‘quvchi va talaba** bilan ishlanmoqda.

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyati yangidan yo‘lga qo‘yilib, **sportchilarni individual tayyorlash** hamda ilk bor **paralimpiya yo‘nalishida** sportchilarni tayyorlash tizimi yaratildi.

Milliy terma jamoalar a’zolari 2022-yildagi **7502 nafardan 9146 nafarga** (**5629 nafar** asosiy va **3517 nafar** zaxira) yetkazildi.

Olimpiya sport turlari bo‘yicha **xalqaro** hamda **kompleks musobaqalar**da sportchilarimiz tomonidan **986 ta**, shundan **274 ta oltin**, **298 ta kumush** va **414 ta bronza** medal qo‘lga kiritildi.

Bundan tashqari, Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasini muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Mazkur Olimpiya o‘yinlarida **O‘zbekiston o‘z tarixida eng ko‘p tarkib** bilan, ya’ni **19 ta** sport turi bo‘yicha **90** sportchi bilan ishtirok etdi.

O‘zbekiston sport delegatsiyasi **5 ta sport turidan** (*boks*, *dzyudo*, *taekvondo*, *erkin kurash*, *og‘ir atletika*) **jami 13 ta medal**, shundan **8 ta oltin**, **2 ta kumush**, **3 ta bronza** bilan **umumjamoa hisobida 13-o‘rinni** egalladi.

Paralimpiya o‘yinlarida delegatsiyamiz **6 ta sport turidan** (*para yengil atletika*, *para dzyudo*, *para taekvondo*, *para pauerlifting*, *para suzish*, *para o‘q otish*) **jami 26 ta medal**, shundan **10 ta oltin**, **9 ta kumush**, **7 ta bronza** bilan **umumjamoa hisobida 13-o‘rin**ni qo‘lga kiritdi.

Kelgusida O‘zbekistonda bir qancha sport turlari bo‘yicha nufuzli sport musobaqalari o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Jumladan, **2025-yilda yoshlar o‘rtasida** yozgi **Osiyo** va **Paraosiyo** o‘yinlarini **Toshkent shahrida tashkil etish** va **o‘tkazish** bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda.

2026-yilda 46-jahon shaxmat olimpiadasi hamda **FIDEning** navbatdagi kongressi o‘tkaziladi.

2028-yilda Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan **XXXIV yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlari**ga O‘zbekiston sport delegatsiyasining **tayyorgarligi** va **munosib ishtirok etishlari** ta’minlanadi.

Ko‘rilgan choralar va belgilangan vazifalar vazirligimiz oldida turgan muhim dastur va rejalarning ijrosini ta’minlashda **muhim ahamiyat** kasb etadi.

Bu jarayonda asosiy vazifamiz, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ijro intizomini ta’minlash, har birimiz o‘z vazifamizga sidqidildan yondashish hamda “**Sportda eng muhimi — tizim, tartib, temir intizom va natija”** shiori bilan har kunlik ish jarayonimizni tashkil etishimiz zarur.

11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KASABA UYUSHMALARI

O‘zbekiston kasaba uyushmalari saroyida 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuniga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, hududiy va tarmoq kasaba uyushmalari respublika kengashlari, tasarrufdagi tashkilotlar rahbarlari, hamkor vazirlik, idora va tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, Xalqaro kasaba uyushmalari birlashmalari, xorijiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlari mutasaddilari, O‘zbekiston kasaba uyushmalari faxriylari va faollari hamda turli sohada faoliyat yuritayotgan mehnatkashlar ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi bilan boshlangan tantanali bayram tadbirini yosh iste’dodlar ijrosidagi vatan, tinchlik, mehnatkashlar va xalqlar do‘stligini madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar davom ettirdi.

Tadbirda inson manfaatlarini ta’minlash yo‘lida o‘tgan 7-8 yilda xalqimiz turmush darajasi va farovonligini oshirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, O‘zbekiston nufuzini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib, salmoqli natijalarga erishilgani ta’kidlandi. Shuningdek, ushbu yutuqlar bugun jamiyatimiz hayoti va xalqimiz turmushidagi ijobiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘layotgani, yangi O‘zbekiston fuqarolari yangicha dunyoqarash bilan yangicha hayot kechirayotgani qayd etildi.

Haqiqatan, inson qadri uchun qilinayotgan ulkan va tizimli ishlar davlatimiz va jamiyatimizni taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqdi. Yangi O‘zbekistonning bu boradagi yutuqlari va qo‘lga kiritayotgan natijalari bugun xalqaro miqyosda tan olinib, yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lmoqda. Izchil o‘zgarish va yangilanishlar, aholining turli toifasi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi tizimli ishlar tufayli yurtdoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligi ortib, yangi marralar sari intilmoqda.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik uchun yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida mamlakatimiz kasaba uyushmalari faoliyati yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Yangi O‘zbekistonning yangi kasaba uyushmalari yurtimizdagi islohotlar, yangilanish va o‘zgarishlardagi faolligini yanada oshirib, turli soha xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida tizimli ishlarni bajarib kelmoqda.

Xususan, bugun xalq tashkilotiga aylangan kasaba uyushmalari Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Ish beruvchilar konfederatsiyasi o‘rtasida imzolangan bosh jamoa kelishuvi, amaldagi 102 ta tarmoq kelishuvi hamda 118 mingga yaqin jamoa shartnomasi orqali mehnatkashlar va oila a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash, ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori standartlariga ish beruvchilar tomonidan rioya etilishi bo‘yicha jamoatchilik nazorati yuritish kabi ishlarni uddalab kelmoqda. Kasaba uyushmalari inspektorlari tomonidan joriy yilning 9 oyida 3095 ta tashkilotda jamoatchilik nazorati o‘tkazildi. Kelib tushgan



4020 murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, jami 62 ming 656 shaxsning huquqi tiklanib, xodimlar foydasiga qariyb 61,5 milliard so‘m undirib berildi. Nodavlat sektoridagi xodimlarning ham jamoa shartnomasidagi imtiyoz va kafolatlardan foydalanishini ta’minlash maqsadida ularni kasaba uyushmalariga jalb etish borasidagi sa’y-harakatlar tufayli 2023-yilning o‘zida kichik biznes subyektlari va xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan 311 ming, 2024-yilning 9 oyida esa qariyb 13 mingga yaqin korxona va tashkilotda mehnat qilayotgan 323 mingga yaqin xodim kasaba uyushmasi a’zoligiga jalb etildi.

Kasaba uyushmalarining xodimlar va oila a’zolarini sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi ishlari ham sifat va miqdor jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan o‘tgan yili Surxondaryo viloyatidagi tog‘lar bag‘rida yangi va zamonaviy “Sangardak” sanatoriysi barpo etilib, foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, joriy yilda Xorazm viloyatida xalqaro standartlarga mos bo‘lgan 200 o‘rinli “Xonqa” sanatoriysi qurilib, mehnatkashlar ixtiyoriga berildi. Bu kabi bunyodkorlik ishlari natijasida 2017-yili O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi sanatoriy va dam olish uylaridagi 5257 ta o‘rin soni bugunga kelib 7000 taga yetkazildi.



Yana bir ahamiyatli jihat shuki, O‘zbekiston kasaba uyushmalari tizimida yangidan bunyod etilayotgan sanatoriylar va ulardagi xizmat ko‘rsatish darajasi sifat jihatidan nafaqat mahalliy, balki xalqaro ekspertlar tomonidan ham yuksak baholanmoqda.

Sanatoriylarda joriy yilning shu kuniga qadar 160 mingdan ortiq kishi sog‘lomlashtirildi. 190 ta statsionar turdagi oromgohda esa qariyb 162,5 ming bola dam oldi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbirda vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini oshirish yo‘nalishidagi ishlarda faol ishtirok etayotgan, mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda kasaba uyushmalari faoliyati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan bir guruh yurtdoshimiz O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining “Ehtirom” nishoni bilan taqdirlandi. Sovrindorlarga nishon, pul mukofoti va guvohnomalar topshirildi.

Shundan so‘ng ko‘p yillik samarali mehnati, erishgan alohida yutuqlari bilan sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish, shuningdek, kasaba uyushmalarining nufuzini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yurtdoshlarimiz va xalqaro hamkorlarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan “O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi laureati” mukofotining 2024-yilgi sovrindorlari taqdirlandi. Xususan, namunali faoliyati bilan barchaga o‘rnak bo‘layotgan, erishgan alohida yutuqlari bilan mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasini ta’minlash hamda aholining turmush darajasini oshirish va salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirishga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan yurtdoshlarimiz qatorida Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnatkashlar faoliyati bo‘yicha byurosi direktori Mariya Xelena Andre, Gruziya kasaba uyushmalari konfederatsiyasi raisi Irakliy Petriashvili, “Turk-iş” (“Turk ish”) kasaba uyushmalari konfederatsiyasi prezidenti Ergun Atalay ham “O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi laureati” mukofotiga munosib ko‘rildi.

Tantanali tadbir yakunida bayram konsert dasturi namoyish etildi.

Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi axborot xizmati rahbari

Dolzarb mavzu

KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

BUNDA ISLOHOTLAR IZCHILLIGI KATTA AHAMIYAT KASB ETADI

Ko‘hna dunyo tarixini o‘rgana turib, bir paytlar sayyoramizning farovonlik nuqtasi bo‘lgan qadimgi Rim aholisining 60 foizidan ko‘prog‘i qashshoq yashaganiga ko‘zim tushdi. Kambag‘allik darajasi nisbiy tushuncha, u muayyan davrlarda o‘sha makonning umumiy farovonlik darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi Rim qashshoqlari juda og‘ir kun kechirgan odamlar bo‘lib, biologik tirik qolishni ta’minlaydigan minimal ehtiyojlarnigina zo‘rg‘a qondirish imkoniga ega edi.





Asrlar osha kambag‘allik tushunchasi, me’yorlari muayyan jamiyatdagi umumiy hayot standartlari asosida o‘zgarib bordi. Bugun kambag‘allik me’yorining asosi moddiy-maishiy ta’minoti ko‘rsatkichlari, oilaviy daromad yoki iste’mol xarajatlarining minimal miqdori ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda.

Kambag‘allik mavzusi yillar davomida O‘zbekistonda mavhum sanalar edi. Ammo har qanday ishning yechimida unga to‘g‘ri yondashish, muammoni hal etish uchun esa uning borligini tan olish lozim. Yillar davomida yopiq mavzu bo‘lib kelgan, “kam ta’minlangan”, “ehtiyojmand” kabi jumlalar bilan o‘ziga xos tarzda ifodalangan bu so‘z keyingi yillarda baralla aytilmoqda. Kambag‘allikni kamaytirish choralari ko‘rilmoqda. Bugun kambag‘allikdan chiqishgina emas, balki farovonlik sari yetaklayotgan harakat — xalqona islohotlar yangi tashabbuslarga, avvalo, oddiy odamlar qalbida muayyan yangilanishlarga, yashash va turmush tarzini butunlay o‘zgartirib yuborishga asos bo‘lmoqda.

KO‘RILGAN CHORALAR NATIJASIDA O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASI 2022-YIL BOSHIDA 17 FOIZGA, 2024-YILGA KELIB 11 FOIZGA TUSHDI. 2030-YILGA QADAR ESA USHBU KO‘RSATKICHNI KESKIN QISQARTIRISH REJA QILINGAN.



Aholi barcha qatlamlarining munosib hayot kechirishini ta’minlash borasida so‘nggi yillarda xalqchil soliq va byudjet siyosati yo‘lga qo‘yildi. Bu, eng avvalo, budjet jarayonlari ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, mablag‘ sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasidagi qator ishlarda o‘z aksini topmoqda. “Ochiq byudjet” portali, shu jumladan, “Tashabbusli byudjet”, “Mening yo‘lim”, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” loyihalarini shakllantirish, byudjet mablag‘larini ularga ustuvor ravishda yo‘naltirishda odamlarning faol ishtirokini ta’minlash mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Natijada bu loyihalar orqali aholi o‘z ovozi bilan mahallasi, makonini obod qilish, infratuzilmasini yaxshilash imkoniga ega bo‘ldi.

Yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi, birinchi navbatda, ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasi bilan chambarchas bog‘liq. Iqtisodchilar fikricha, kambag‘allikka qarshi pul bilan emas, aql va bilim bilan kurashish zarur. Shu maqsadda yoshlarga munosib ta’lim berish, ilm-fanga intilishini ro‘yobga chiqarish, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, umuman, ta’lim jarayonlari sifati tubdan yaxshilanmoqda. Ilgari oliygohlarga o‘qishga kirish juda qiyin edi. Kvotalar kam, qabul imtihonlarida turli muammolar bor edi. Bu masalalar hisobga olinib, oliy ta’limga qabul kvotasi yildan yilga oshirilmoqda. Xususan, o‘tgan davrda oliy ta’limga ajratilgan davlat grantlari soni ko‘payib, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravar oshirildi. Birgina Samarqand viloyati misolida ko‘rsak, 2010-yilda oliy ta’lim muassasalari 6 ta bo‘lib, ularda 23 ming talaba tahsil olgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, 15 ta ta’lim muassasasida 90 ming 588 talaba yoshning orzusi ro‘yobga chiqib, oliy ta’lim olmoqda.

Uzluksiz ta’lim ijodiy, ijtimoiy faol hamda ma’naviy boy shaxsni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bunda maktabga tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi. Bugun tarmoqda kengayish hisobiga qamrov darajasi keskin oshgan. Xususan, Samarqandda 2010-yilda 574 ta bog‘cha faoliyat yuritib, tarbiyalanuvchilar soni 45 ming 298 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ko‘plab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ochilishi hisobiga hozir 4 ming 285 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida 251 ming 130 bola qamrab olingan.

O‘z ko‘chasini obod qilish imkoni

Aholi farovonligi omilini belgilashda yana bir muhim mezon bo‘lgan sog‘liqni saqlash tizimi ham tubdan takomillashtirilib, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligi oshdi. Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot sohasini zamon talablari darajasiga olib chiqish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohadagi katta o‘zgarishlardan yana biri — davlat shifoxonalari bilan birga xususiy tibbiyot ham rivojlanmoqda. Samarqand viloyatida 2010-yilda 117 ta shifoxonada 14 ming 15 ta o‘rin mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, muassasalar soni 125 taga yetkazilgan va o‘rinlar qamrovi 17 ming 115 tani tashkil etadi. Shuningdek, viloyatda vrachlar soni 2010-yildagi 8 ming 61 dan 11 ming 988 nafarga yetdi.

Barcha hududlarda uy-joylar qurish sur’ati va ko‘lami yil sayin kengaymoqda. Bu borada viloyatda 2010-yilda 524 ming 236 ta (kvartira) uy-joy mavjud bo‘lgan bo‘lsa, oxirgi ma’lumotga ko‘ra, aholini uy-joy bilan ta’minlash va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan samarali islohotlar natijasida uy-joylar soni 841 ming 896 taga yetgan.

Tog‘dek yuksalayotgan inson qadri

Ba’zan ulkan tog‘ ham yonida tursang oddiy tuyulaveradi. Sal chetroqdan nazar tashlansa, uning nechog‘liq ulug‘vorligini his etish mumkin. “Inson qadri uchun” tamoyili shu kabi ko‘plab tashabbuslarda, amaliyotlarda ifodasini topayotgan bo‘lsa-da, ba’zan bu o‘zgarishlarni ilg‘amaymiz. Go‘yo shunga kelganda ongimiz noshukurlik qobig‘ida zirhlangandek.

Konfutsiy aytadi: “Eng yaxshi narsaga ega bo‘lgan emas, balki o‘zidagi bor narsani eng yaxshi deb bilgan kishi baxtlidir”. Ko‘pincha baxtimiz bizda hali mavjud bo‘lmagan natijaga bog‘liq deb o‘ylaymiz. Biz bor narsamizni qadrlash o‘rniga nima yetishmayotgani haqida o‘ylaymiz. Inson ruhiyati shunday tuzilgandek.

Kambag‘allik mavjudligi tan olinishi sohaga yondashishda dastlabki burilish nuqtasi bo‘ldi. 2020-yilda bu borada keng ko‘lamli ishlarga kirishilganda 23 foiz aholi daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasdi. Ish boshidan aholini kambag‘allikdan chiqarish uchun davlat tomonidan bir necha dasturlar asosida imtiyozli kreditlar ajratildi, subsidiya berila boshlandi, mehnat qilaman degan oilalarga yer berildi. Qo‘lida hunari yo‘qlarga avval kasb-hunar o‘rgatilib, ish bilan ta’minlandi. Ko‘rilgan choralar natijasida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2022-yil boshida 17 foizga, 2024-yilga kelib, 11 foizga tushdi. 2030-yilga qadar esa ushbu ko‘rsatkichni keskin qisqartirish reja qilingan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “Har bir inson o‘zi hamda oilasi salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur turmush darajasiga, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa holatlarda ta’minlanish huquqiga ega”ligi belgilangan. Shunga ko‘ra, kambag‘allik darajasi o‘lchovi, uning chegarasi asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy haqini to‘lash, suv bilan ta’minlash, elektr energiyasi, maktab ta’limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo‘lgan daromadlar sifatida belgilangan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo‘lib yashashi bizning bosh maqsadimizdir”.

Farovonlik omillari shu kunga qadar ko‘pgina islohotlarda — valyuta bozori erkinlashtirilishi, naqd pul bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilishi, davlat xizmatlari



rivojlantirilishi, ortiqcha byurokratiyaga barham berilishi, majburiy mehnat, shu jumladan, bolalar mehnati tugatilishi, aholi murojaatlari bilan ishlash hamda oddiy odamlar va rahbarlar o‘rtasidagi “devor qulashi”, inson huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi, oliy ta’lim tizimi rivojlantirilishida o‘z aksini topmoqda. Bunda oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari oshirilishi, xorijiy OTMlar filiallari ochilishi, tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi kabi harakatlar qo‘l keldi. Boshqacha aytganda, farovonlik indeksi aholining moddiy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko‘p qirrali, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalarda namoyon bo‘lmoqda. Aholining turmush darajasi, daromadlari, xarajatlari, iste’mol darajasi va uning tarkibi, uy-joy bilan ta’minlanganligi va boshqa shu kabi orzu-havaslarini qamrab oladi.

“Ishtaha ovqat vaqtida keladi”, deganlaridek, xarid salmog‘i ham hamyonning “cho‘g‘”iga qarab oshadi. Farovonlik asosi esa o‘zbekona orzu-havaslar tasnifida, turfa sharoitlarda namoyon bo‘ladi. Shu bois, aholi o‘rtasida, shubhasiz, orzu-havas borasidagi tafovut qisqarib bormoqda. Buni statistika misolida qiyoslab ko‘radigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2024-yilning 8 oyida 48 ming 55 ta yengil avtomobil import qilingan. Bu 48 mingta qorako‘zning darvozasida yangi avtoulov paydo bo‘lganini va ularning azaliy orzusi ushalganini ko‘rsatadi. Ushbu orzusiga erishganlar soni esa o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 8352 taga oshgan.

Turmush farovonligi omillari hisoblangan maishiy texnika vositalari bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi ham ancha yaxshilangan. Bugun 100 ta uy xo‘jaligida kompyuter soni o‘rtacha 69 ta. Ushbu ko‘rsatkich 2010-yilda 12 tani, 2015-yilda 47 tani, 2020-yilda 60 tani tashkil etgan. Televizor esa 100 ta uy xo‘jaligida o‘rtacha 177 ta. Konditsioner soni o‘rtacha 53 taga yetib, bu ko‘rsatkich 2010-yilda 19 tani, 2015-yilda 32 tani, 2020-yilda 40 ta edi. Ayollarning og‘irini yengil qiluvchi kir yuvish mashinasi soni o‘rtacha 97 taga yetgan. Farovonlikning yana bir muhim omili sayohat va turizm hisoblanib, Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 4,5 million o‘zbekistonlik sayyohlik maqsadlarida chet elga borgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,2 million nafar yoki 35,8 foiz oshgan.



Inson ehtiyojlarida oziq-ovqat alohida o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda jon boshiga to‘g‘ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha iste’mol hajmi, sarf-xarajatlar miqdori sezilarli ravishda ko‘paymoqda. Aholini non va non mahsulotlari bilan mustaqil ta’minlash maqsadida qilayotgan harakatlar natijasida bug‘doy yetishtirish ko‘paymoqda. Shu bilan birga, aholi soniga nisbatan daromadlari yuqori sur’atlar bilan ko‘paygani sababli mahsulotlar serobligi ta’minlanib, narx-navo barqarorligiga erishilmoqda.

Iste’mol hajmi ortmoqda

Samarqandda 2024-yilda barcha toifadagi xo‘jaliklarda 151 ming tonna go‘sht, 690 ming tonna sut, 525,9 million dona tuxum ishlab chiqarilib, aholi dasturxoniga yetkazib berilgan.

Jahon amaliyoti ko‘rsatadiki, birgina iqtisodiy vositalar ko‘magida kambag‘allik bilan kurashib bo‘lmaydi. Buning uchun davlat siyosati darajasidagi jiddiy sa’y-harakatlar kerak. Iqtisodiyotdagi yutuqlar va resurslardan aholining zaif qatlamlari ham bahramand bo‘lsagina, kambag‘allik qisqaradi. Aholiga yer berilishi, subsidiyalar ajratilishi, kasbga o‘qitilishi, zamonaviy innovatsion uskunalar bilan ta’minlanishi, shuningdek, ularga yondosh infratuzilmalar yaratilishi kabi xalqchil islohotlar fonida bu chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Ijtimoiy himoya

YAXSHILARNING BORIGA SHUKR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI

Farg‘ona tumanidagi Nishonbu Ergasheva yolg‘iz yashaydi. Hayotning turli talato‘plarini sabr-bardosh bilan yengib kelayotgan mushfiq ona keksalik tufayli hassaga suyanib qolgan. Harakatlanish, uy va maishiy yumushlarni bajarishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelayotgandi.



Yolg‘iz onaning hayot tarzi bilan yaqindan tanishgan Farg‘ona tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xulosasiga ko‘ra, unga o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxs sifatida ijtimoiy xodim assistenti biriktirildi. Xodim haftaning besh kunida ikki soat mobaynida oiladagi maishiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda amaliy yordam berib kelmoqda.

— Yaxshilarning boriga shukr, — deydi Nishonbu aya. — Xonadonimga Muqaddasxon assistent bo‘lib kelgach, hammasi o‘zgardi. Qo‘l-oyog‘i chaqqongina ekan, uy yumushlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarda menga har jihatdan yordam beryapti. Ko‘nglimni ko‘tarib, yashashga ishtiyoqimni oshirdi. To‘g‘risi, yolg‘iz qolib, hayotga qiziqishim so‘nib borayotgandi. O‘zimni hech kimga keraksiz, himoyasizdek his qilayotgandim. Assistent xizmati joriy etilganidan buyon sog‘lig‘imda keskin o‘zgarishlar yuz beryapti. Hammasi uchun rahmat.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan Nishonbu Ergashevaning yo‘qolgan hujjatlarini tiklash, yakka-yolg‘izlik nafaqasi tayinlash bilan bog‘liq amaliy ishlar bajarilmoqda. Qish mavsumi uchun ko‘mir jamg‘arish maqsadida mahalla fuqarolar yig‘iniga kerakli taqdimnoma kiritildi.

Kambag‘al, ishsiz, jismoniy imkoniyati cheklangan, yordam va xizmatlar ko‘rsatishga muhtoj aholi qatlamini aniqlash va manzilli yordam ko‘rsatish tizimidagi islohotlar ko‘lami kengaydi. Avvallari ijtimoiy xizmat mahalla darajasida to‘liq qamrab olinmagan, faqat keksa yoshdagi fuqarolarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, endi boshqaruvning eng quyi bo‘g‘imi — mahalla darajasida professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

— Farg‘ona viloyatida nogironligi bo‘lgan 93 ming 356 shaxs va o‘zgalar parvarishiga muhtoj qariyb 2100 ga yaqin yolg‘iz keksaga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va ijtimoiy xodimlar tomonidan manzilli yordam ko‘rsatilmoqda, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Abunazar Salimov. — Prezidentimizning 2023-yil 27-dekabrdagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan viloyatimizda o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz keksalar reyestridagi 270 shaxsning yashash sharoiti qayta baholab chiqildi. Ularning 1929 nafari chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. 135 yolg‘iz yashovchining turar joy sharoiti moslashtirildi, 97 yolg‘iz keksaning qarindoshlari va yaqin insonlari o‘rtasidagi munosabat tiklanishiga erishildi. O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksa reyestrida turuvchi 944 shaxs esa qonun hujjatlarida bepul berilishi nazarda tutilgan dori-darmon bilan ta’minlandi.

Faqat bugina emas. “IHMA Sanatoriy” moduli ishga tushirilgach, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga agentlik tasarrufidagi sanatoriylarda dam olib, salomatligini tiklash uchun zarur sharoit yaratildi. O‘tgan 10 oyda viloyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj 3810 shaxs yo‘llanma asosida sanatoriylarga yuborildi. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko‘rsatish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash, parasport turlariga keng jalb qilish borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda.

O‘zbekiston tumani “Yangi hayot” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi O‘lmasxo‘ja Zokirov va turmush o‘rtog‘i ikkinchi guruh nogironi. Ular Farg‘ona shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabida tikuvchilik yo‘nalishida birga o‘qib, turmush qurgan. Ikki farzandi bor. Ammo shu kunga qadar ishsiz edi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining amaliy ko‘magi bilan bu oila muqim daromadli ish bilan ta’minlandi.

— Bizga har jihatdan amaliy yordam ko‘rsatilmoqda, — deydi xonadon sohibi O‘lmasxo‘ja Zokirov. — Qorovul bo‘lib ishlayapman. Bo‘sh vaqtimda uyda tikuvchilik bilan shug‘ullanaman. Ba’zilar chevarlik yigitga xos kasb emas, boshqa hunar o‘rgan, deydi. Men ularning fikriga qo‘shilmayman. Har qanday hunar istak, bilim va tafakkurga asoslandi. Shu hunar ortidan ro‘zg‘or tebratyapmiz, farzandlarimizni o‘qitib, uy-joylar qurdik. Bularning barchasi, avvalo, e’tibor va g‘amxo‘rlik, mehnatlarimiz samarasi deb o‘ylayman.

Og‘ir vaziyatga tushgan yoki buning ehtimoli yuqori bo‘lgan oilalarga “keys menejment” asosida ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatilishi kutilganidek samara bermoqda. Yil boshidan buyon 15 mingdan ziyod oilani og‘ir ijtimoiy vaziyatdan chiqarishga qaratilgan ijtimoiy ish ochilib, 13 600 dan ortiq keys ijobiy yakunlandi. Bundan tashqari, “Inson” ijtimoiy xizmatlar” axborot tizimiga 133 ming 775 ta ariza kiritilib, 100 ming 895 fuqaroga turli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatildi. Og‘ir vaziyatga tushgan yoki buning ehtimoli yuqori bo‘lgan 2886 ta oilaga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan 2 milliard 232 million so‘mdan ziyod moddiy yordam berildi.

Qisqasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash, manzilli yordam ko‘rsatishning samarali tizimi hayotga tatbiq etilayotgani mehr, e’tiborga mushtoq kishilar, nogiron, yakka-yolg‘izlar qalbiga quvonch va umid bag‘ishlamoqda. Ertangi kunga ishonchini oshirmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

O‘Z ISHINING USTASI BO‘LISH KERAK

Ilg‘or muhandislik maktablari yetuk mutaxassis tayyorlashni ko‘zlagan

O‘ktam SALOMOV,
texnika fanlari doktori, professor


Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlash jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir. Mamlakatimizda yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, ularda 150 ming atrofida ish o‘rni yaratilmoqda. Shundan 35 mingtasi texnika yo‘nalishida. Yurtimizda bu yo‘nalishdagi 36 ta davlat oliy ta’lim muassasasini yiliga 67 ming talaba bitirmoqda. Ularning sanoat korxonalarida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta’minlanishi esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq.



Hozir iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat va ishlab chiqarish taraqqiyoti uchun barcha sharoitlar mavjud, ularning o‘sishiga to‘sqinlik qilayotgan muhim omil esa sifatli kadrlar, yanayam aniqroq aytsak, o‘z ishining ustasi bo‘lgan muhandislar, texnik xodimlar, texnologlar yetishmayotganidir.

Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida ham muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Joriy yil 20-iyun kuni Prezidentimiz rahbarligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim



muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda sohadagi muammolarga yechim sifatida ilg‘or muhandislik maktablarini tashkil etish ko‘rsatib o‘tildi. 10 ta ta’lim muassasasida ilg‘or muhandislik maktablari ochilishi belgilandi. Farg‘ona politexnika institutida ham sanoat muhandisligi maktabini tashkil etish rejalashtirilgan.

Institut ilg‘or muhandislik maktablarini tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajribalar asosida o‘z konsepsiyasini ishlab chiqdi. Xususan, Italiyaning Turin va Milan politexnika universitetlari ta’sischiligida tashkil etilgan Alta Scuola Politecnica, AQSHning Penn State University tomonidan ta’sis etilgan HONOR PROGRAMS, Rossiyaning N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti va Buyuk Petr nomidagi Sankt-Peterburg politexnika universiteti tomonidan tashkil etilgan ilg‘or muhandislik maktablari faoliyati o‘rganilib, tahlil qilindi. Ushbu tajribalardan kelib chiqib, institutda ikki yillik maxsus magistratura dasturlari bo‘yicha “soha — korxona — oliygoh” tamoyili asosida o‘quv-ilmiy tuzilma sifatida ilg‘or muhandislik maktablari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “muammo — tadqiqot — mahsulot” tamoyilida ta’lim klasterini tashkil etish maqsad qilingan.

Dastlabki bosqichda oliy muhandislik maktabida mashinasozlik, elektrotexnika, energetika va kimyo texnologiyasi mutaxassisliklari bo‘yicha maxsus magistratura dasturlari yo‘lga qo‘yiladi. Magistratura dasturlarida dastlabki yilda kadrlar buyurtmachilar talablari asosida shakllantirilgan o‘quv rejalar bo‘yicha o‘qitiladi. Ta’lim dasturlariga qayta muhandislik (reengineering), qiyoslash muhandisligi (benchmarking), tannarx muhandisligi (cost engineering) va boshqa zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos maxsus fan va modullar kiritiladi. Talabalarga soha buyurtmachilari talablari asosida shakllantirilgan o‘quv dasturlari asosida yangi mahsulotlarni loyihalashtirish hamda ilmiy izlanishlarga yo‘naltirilgan dasturlar bo‘yicha ta’lim beriladi.

Magistraturaning ikkinchi yilida yangi mahsulotlar bo‘yicha tajriba konstruktorlik namunalarini yaratish bilan bog‘liq texnologik jarayonlar korxonalarda bevosita amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Amaliyot bilan bog‘langan ilmiy tadqiqotga yo‘nalgan maxsus ta’lim dasturlarida tahsil olgan ushbu talabalar kelajakda yurtimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga, sanoatimiz rivojiga hissa qo‘shadigan yuqori malakali kadrlar bo‘lib yetishadi.

Ta’lim muassasamizdagi muhandislik ta’limi modelining muhim xususiyati ko‘p tarmoqlilik, turli vazifa va multitexnologiyalarga asoslanganidadir. Talabalar uchun o‘zgaruvchan texnologik jarayonlarga moslashuvchan va faol munosabatda bo‘lish imkonini beruvchi individual ta’lim yo‘nalishlari tizimi joriy etilmoqda.

Mashinasozlik, kimyo sanoati, energetika va elektrotexnika muhandisligi sohalari bo‘yicha so‘nggi uch yil mobaynida hamkor korxonalar va xorijiy kompaniyalar tomonidan moddiy-texnik bazani rivojlantirish maqsadida qiymati 1 milliard 344 million so‘mlik o‘quv laboratoriyalari tashkil etilmoqda. Xususan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ajratilgan mablag‘ hisobidan joriy yilda 7,8 milliard so‘mlik 59 turdagi o‘quv va ilmiy-tadqiqot laboratoriya jihozlari institutimizga yetkazildi.

Ilg‘or muhandislik maktabi tashkil etilishida hududdagi “Hududiy elektr tarmoqlari”, “O‘zbekneftgaz”, “O‘ztransgaz”, “Hudud gaz ta’minot”, “Issiqlik elektr stansiyalari”, “O‘zbekgidroenergo”, “O‘zavtosanoat”, “Quvasoysement”, “Farg‘onaazot”, “Kvars”, “Qo‘qon mexanika zavodi” AJlari kabi 20 dan ortiq yirik sanoat korxonasi, shuningdek, metodik jihatdan Italiyaning Turin politexnika universiteti, Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti va Sankt-Peterburg politexnika universiteti bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Farg‘ona politexnika instituti sanoat muhandisligi maktabini tashkil etishda “O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalari bilan izchil hamkorlik qilayotganini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, “UzAutoMotors” AJ talablari asosida ishlab chiqarish muhandisligi, ishlab chiqarish boshqaruvi va avtomobilsozlik uchun elektrotexnika muhandisligi yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlash maqsadida korxona talablari va buyurtmasi asosida maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mutlaqo yangicha yondashuvlar va bilimlar asosidagi ushbu ta’lim dasturlarini yaratishda institutimizda yetarlicha salohiyat, imkoniyat va tajriba mavjud. Xususan, bu jarayonlarga nufuzli xorijiy universitetlar va



yetakchi korxonalardan salohiyatli mutaxassislarni jalb etish rejalashtirilgan.

Uzoq muddatli strategik hamkorlik rejalarimizdan “O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalarining strategik rivojlanish, muammolar bankidan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash va hamkorlikda ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish ham o‘rin olgan bo‘lib, ushbu laboratoriyaga ilg‘or muhandislik maktabi talabalari hamda soha bo‘yicha ilmiy tadqiqot qilayotgan doktorant va tadqiqotchilarni biriktirish belgilangan. Shuningdek, “O‘zavto” akademiyasi huzurida muammolarning texnologik yechimlarini o‘rganish uchun ilmiy markaz tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Ta’limga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qarash yaqin kelajakda yangidan yangi ixtirolarga asos bo‘ladi. Institut jamoasi bilan innovatsion iqtisodiyot uchun mahalliy mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish strategik rejalarini amalga oshirmoqdamiz. Prezidentimiz bevosita bizning ta’lim muassasamizni bu borada tajriba sifatida e’tirof etgani ushbu jarayondagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishimiz uchun muhim omildir.

Yuksalish pallasi

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ta’lim sifatini oshirish kun tartibidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda, ayniqsa, pedagoglarning malakasi yuqori bo‘lishi ahamiyatli. Zero, bilimli, salohiyatli o‘quvchilarni ilg‘or tajriba va zarur ko‘nikmalarga ega ustozlar tarbiyalaydi. 2023-yil 28-avgustda Prezidentimiz raisligida maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda o‘qituvchilar malakasini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan edi. Jumladan, o‘qituvchilar malakasini oshirish va toifa berish tizimi to‘liq o‘zgartirilishi nazarda tutilgan.





MALAKA SINOVLARI

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUHIM QADAM





Prezidentimizning 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida pedagoglar attestatsiyasi yangi tartibda joriy etildi.

Shu kunlarda respublikamiz bo‘ylab, xususan, poytaxtimizda joylashgan Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazida Toshkent shahri va viloyati ta’lim muassasalari pedagoglari ishtirokida ikkinchi bor attestatsiya sinovlari bo‘lib o‘tmoqda.

Yangi tartibga ko‘ra, sinovlar ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqichda mutaxassislik fanidan pedagoglarning bilimi (bilish, qo‘llash, mulohaza qilish ko‘nikmalari), ikkinchi bosqichda pedagogik mahorati baholanayotir.

Har ikkala bosqich ham kompyuterda real vaqt rejimida (onlayn) o‘tkazilmoqda. Buning natijasida tashqi ta’sir — inson omili aralashuviga barham berilgan.

— Sinov materiallari soha mutaxassislari, olimlar va amaliyotchi pedagoglarni jalb qilgan holda testologiya me’yorlari asosida ishlab chiqildi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Umid Do‘stnazarov. — Shuningdek, pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan 56 ta mutaxassislik fani bo‘yicha toifa test topshiriqlari shakllantirildi va ekspertizadan o‘tkazildi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari uchun 12 ta fan kesimida uch tilda (o‘zbek, rus, qoraqalpoq) 3370 ta, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun 36 ta fan



kesimida uchta tilda (o‘zbek, rus, qoraqalpoq) 21 ming 980 ta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun yetti tilda (o‘zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, turkman, qozoq, qirg‘iz) 1925 ta savollar banki shakllantirildi.

Madaniyat vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internat hamda bolalar musiqa va san’at maktablari pedagoglari uchun ko‘p variantlilik asosida nazorat savollari banki ishlab chiqildi. Sinovlarda ishtirok etish uchun 190 mingdan ortiq talabgor pedagogning arizasi kelib tushgan. Ulardan 153 ming nafardan ortig‘i test sinovlarida ishtirok etishi kutilmoqda. Nomzodlarning 18,3 ming nafari navbatdagi majburiy, 136,1 ming nafari navbatdan tashqari hamda 17,4 ming nafari to‘g‘ridan to‘g‘ri malaka sinovlarida qatnashish uchun murojaat yuborgan.

— Ish boshlaganimga 3 yil bo‘ldi, — deydi poytaxtimizning Yangihayot tumanidagi 2-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Anna Valiyeva. — Attestatsiyaga yangi dastur va yangi darsliklar asosida tayyorgarlik ko‘rdim. Men adabiyotlar ro‘yxati asosida avval bahorgi attestatsiyaga tayyorlandim. Dastlab metodika bo‘yicha savollar bir oz qiyin, savol va javoblar bir-biriga o‘xshash tuyuldi. Chunki biz hali yangi metodika va darsliklar bilan ishlashni to‘liq o‘rganmagan edik. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda yangi darsliklar asosida dars o‘tishda bir oz qiynalgan holatlarimiz bo‘ldi. Yangi darsliklarda tahlil qilish, axborot to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri berilayotganini anglash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Ya’ni qaysidir ma’lumot noto‘g‘ri talqin etilayotganini anglab olish qobiliyatini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Attestatsiyaga tayyorgarlik jarayonida ana shu ko‘nikmalarga ega bo‘ldik va bildimki, jiddiy hozirlik ko‘rilsa, albatta, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Natijada sinovda 80 ball to‘plab, birinchi toifa olish imkoniga ega bo‘ldim. Bu oylik maoshimga ustama qo‘shilishi barobarida kasbiy o‘sishimga poydevor yaratmoqda. Qolaversa, “Men pedagog bo‘lishga loyiqmanmi?” degan savolga javob topgandekman.

Xo‘sh, yangi tartibdagi sinovlar tashkiliy jihatdan avvalgi tartibdan nimasi bilan farq qiladi?

Avvalo, sinovlarni real vaqt (onlayn) rejimida o‘tkazish uchun respublika bo‘ylab 1900 ta zamonaviy kompyuter bilan jihozlangan katta sig‘imdagi joylar tayyorlandi. Maxsus ro‘yxatga olish va test o‘tkazish platformasi ishlab chiqildi. Kompyuterlarga veb-kameralar o‘rnatilgan, Face ID — yuzni tanib olish texnologiyasidan foydalanilmoqda.

Shuningdek, test sinovlarida birinchi marta Blockchain texnologiyasi qo‘llanildi. Bu orqali har bitta pedagog tomonidan yechilgan testning vaqti, to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblari haqidagi ma’lumotlarni o‘zgarmas shaklda saqlash imkoniyati yaratildi hamda turli korrupsion omillarning oldini olishga erishildi. Ushbu yangiliklar attestatsiya jarayonining shaffof va adolatli o‘tishiga hissa qo‘shmoqda.

— Bu galgi attestatsiyada tizimni ham, tashkiliy savollarni ham yanada takomillashtirishga harakat qildik, — deydi Umid Do‘stnazarov. — Veb-kameralar o‘qituvchilarni davriy oraliqda ham rasmga olib turdi. Bu orqali nafaqat sinovga kirayotgan paytida o‘qituvchi shaxsi tasdiqlanadi, balki test davomida boshqa yoqqa qaramayotgani, testdan o‘z bilimi bilan o‘tayotgani ham nazorat qilinadi. Bundan tashqari, binolarga kuzatuv kameralari o‘rnatilgan, kim istasa, internet orqali test jarayonini kuzatishi mumkin. Nomzodlar uchun qulay kutish joylari, tibbiy xizmat ko‘rsatish tashkil etildi. Yangi tartibning farqli jihatlaridan yana biri malaka toifasi bo‘yicha sinovlarning har ikkala bosqichi ham bir vaqtda o‘tkazilayotganidir. Bu o‘qituvchilarga faqat o‘z bilimlariga tayanish kerakligini uqtiradi. Avval ta’lim tashkilotlari rahbarlari pedagoglarga 20 ball qo‘yib bergan, bu esa obyektiv baholashga ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, o‘z ixtiyori bilan navbatdan tashqari attestatsiyada ishtirok etish imkoniyatlarini cheklash mumkin bo‘lgan. Endilikda xohlagan pedagog o‘z shaxsiy kabineti orqali murojaat yuborishi va sinovlarda qatnashishi mumkin. Sinovlar 100 ballik tizimda baholanadi. Birinchi bosqichda pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi baholanadi (80 ball). Bunda pedagoglarga mutaxassislik fani bo‘yicha 35 ta ham ular asosan bilimni qo‘llash va mushohadaga yo‘naltirilganidan dalolat.

Yangi darsliklar 4K metodikasiga asoslangan. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, kollaboratsiya, kommunikativlik, ijodiy (kreativ) va tanqidiy (kritik) fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi.

Ushbu kompetensiyalar tasavvur etish, g‘oyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Maktab o‘quvchilariga mustaqil o‘qish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, o‘zini ko‘rsatishga imkon beradi. Bu esa o‘qituvchidan bolalarda ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berish, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishni talab etadi. Har bir darsda faqat fan mazmuni emas, balki qobiliyatni mustaqil rivojlantirish jarayoni ustun bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqishda ko‘plab xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganildi. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklarining Ilg‘or ta’lim kolleji (Emirates College for Advanced Education) bilan o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Yangi tartib pedagoglar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni ishtirokchilar sonidan ham ko‘rishimiz mumkin. Shu yilning aprel-may oylarida birinchi marta tashkil etilgan malaka (test) sinovlarida 194 ming 392 pedagog ishtirok etdi. Attestatsiya natijalariga ko‘ra, maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining 9104 nafariga oliy, 25 ming 725 nafariga birinchi, 47 ming 665 nafariga ikkinchi malaka toifasi berildi. 11 ming 533 pedagog mutaxassis lavozimiga muvofiq, 15 ming 52 nafari esa mutaxassis lavozimiga muvofiq emas deb topildi.

Majburiy attestatsiyaga jalb etilib, yetarli ball to‘play olmagan, ya’ni mutaxassis lavozimiga muvofiq emas deb topilgan pedagoglarga choralar ko‘rilishi belgilangan. Oliy ma’lumotli o‘qituvchi lavozimidagi pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘ta olmagan taqdirda ish beruvchi xodimning malakasi yetarli bo‘lmagani sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish huquqiga ega. Ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qilmagan taqdirda navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘ta olmagan mutaxassis (oliy ma’lumotli o‘qituvchi) lavozimidagi pedagog kadr navbatdan tashqari attestatsiyaga ko‘pi bilan uch marta jalb etiladi. Bunda uch martadan birortasida ham navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘ta olmagan yoki uzrli sababsiz (kasallikka chalinishi oqibatida uzoq muddatli mehnatga qobiliyatsizlik hamda davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligidan tashqari hollarda) attestatsiyada ishtirok etmagan pedagog kadr bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning malakasi yetarli bo‘lmagani sabab bekor qilinadi.

O‘qituvchilarga bu nima beradi, degan haqli savol tug‘iladi. Attestatsiyaga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi o‘z ustida ishlaydi, pedagogning maoshi to‘g‘ridan to‘g‘ri attestatsiyadan olgan toifasiga bog‘liq hisoblanadi. O‘qituvchining salohiyati o‘quvchi bilimida aks etadi.

Yangi malaka sinovlari pedagogik faoliyatning sifatini oshirishda katta qadamdir. Ushbu jarayon ta’lim tizimida barqaror rivojlanishga xizmat qiladi, o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ma’lumotlarga qaraganda, jahon turizm va sayohat ekspertlari O‘zbekistonni yaqin kelajakda sayyohlar oqimi yanada ortishi kutilayotgan besh davlat qatoriga qo‘shgan.

San’at sehri





Folklor san’ati xalqimizning orzu-armonlari, ezgu niyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, qadimiy an’analarni ifodalovchi, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega vositadir. Shu bilan birga, o‘zbek millatining ma’naviy dunyosini ifodalashi bilan yanada ahamiyatlidir.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi va kombinat xodimlari kasaba uyushmasi kengashi tomonidan tashkil etib kelinayotgan “Qizilqum oltin merosi” folklor festivali ilk marta 2018-yilda o‘tkazilgan edi. Bu yilgi festival ham Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi.



tumanidagi Qarnabota mahallasining “Shodlik” klubi huzurida tashkil etilgan “Ma’mura” ansambli hududga xos urf-odatlarni mahorat bilan ko‘rsatib berdi.

“Qizilqum oltin merosi” folklor festivalining ikkinchi kuni folklor-etnografik ansambl jamoalari erkin mavzuda, janrdan chiqmagan holda san’atini namoyish etdi. Ushbu bosqichda jamoalarga fonogrammadan foydalanishga ruxsat etilmadi va chiqishlar xalq cholg‘u asboblari jo‘rligida, jonli ijroda bo‘lishi

QIZILQUM KENGLIKLARI UZRA NAVOLAR

MILLIY QADRIYATLARGA UYG‘UN FESTIVAL

Navoiy viloyatida folklor san’ati rivojiga alohida e’tibor beriladi. Turli millat va elat vakillari istiqomat qiladigan hududda xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashgan ushbu yo‘nalishga alohida qadriyat sifatida qaraladi. Yurtimizda 2018-yildan buyon har ikki yilda o‘tkazib kelinayotgan “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalining yakuniy bosqichi Navoiy viloyatining Nurota tumanida o‘tkazilgani ham fikrimiz tasdig‘idir.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi va kombinat xodimlari kasaba uyushmasi kengashi tomonidan tashkil etib kelinayotgan “Qizilqum oltin merosi” folklor festivali ilk marta 2018-yilda o‘tkazilgan edi. Bu yilgi festival ham Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi.

Uch kun davom etgan folklor festivalida “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi tasarrufidagi madaniyat maskanlarining 8 ta folklor-etnografik ansambli qatnashdi. Festivalning birinchi kuni folklor-etnografik ansambl jamoalari o‘z hududidagi urf-odat va qadriyatlarni teatrlashtirilgan tarzda mohirona ijro etdi.

Bugungi yosh avlod milliy an’analarimiz va xalq o‘yinlari bilan yaxshi tanish emasligi haqida fikrlar mavjud. Festival g‘oyasi yosh avlodga boy madaniy urf-odatlar va xalq an’analarini yetkazishni maqsad qilib, ular orasida milliy merosni yanada ommalashtirishga alohida urg‘u berildi.

Festivalda ishtirok etgan bolalar jamoalari orasida Zafarobodning “Shodlik” ansambli milliy o‘yinlarni, Zarmitandagi “Konchi” madaniyat uyining “Zarmitan” ansambli va zarafshonlik bolalardan iborat “Dilnavo” ansambli yilboshi marosimlarini, “Nurobod” madaniyat uyining “Kamalak” bolalar jamoasi xalq o‘yinlarini, Farhod madaniyat saroyining “Sardoba qaldirg‘ochlari” jamoasi qadimgi o‘yinlarni sahnada aks ettirdi. Ushbu folklor sahna ko‘rinishlari tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Kattalar ansambllari bosqichi ham ko‘plab yaxshi fikr va e’tiroflarga loyiq ko‘rildi. Ushbu bosqichda “Farhod” madaniyat saroyining Karmana tumanidagi “Navro‘z” klubi huzurida tashkil etilgan “Do‘stlik” ansambli an’anaviy to‘y marosimlarini sahnaga olib chiqdi. O‘zbek milliy hunarmandligi namunalari Zafaroboddagi “Yoshlik” madaniyat va sport majmuasining “Shodlik” ansambli namoyish etgan “Hunarmandlar” kompozitsiyasida o‘z ifodasini topdi.

Qizilqum bag‘ridagi olis hududda joylashgan “Uchquduq” madaniyat saroyi huzuridagi “Sahro” ansambli momolarimizdan meros ip yigirish marosimini o‘ziga xos tarzda ijro



etdi. Xalqaro festivallar ishtirokchisi bo‘lgan Karmana tumanining “Sardoba” folklor-etnografik ansambli esa kelin-kuyov marosimini sahnada ko‘rsatib, tomoshabinlar va hakamlar e’tiborini qozondi. Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo” ansambli paxtakorlar hayotini, Paxtachi belgilandi. Har bir jamoa ushbu yo‘nalishda ham yuksak san’at va mahoratga ega ekanini ko‘rsatdi.

Ijodiy jamoalar chiqishini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “O‘zbekiston” telekanali bosh rejissyori Alisher Madrahimov raisligidagi hakamlar hay’ati baholab bordi. Hay’at tarkibida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Toshpo‘lat Matkarimov, xonanda Baxtiyor Sultonov va boshqa taniqli san’atkorlar borligi sahna ko‘rinishlari, ijro etilgan milliy qo‘shiqlarni munosib baholashda muhim ahamiyat kasb etdi.

— O‘zbek milliy san’ati boy va o‘ziga xos tarixga, qadriyatlarga ega. Uning bugungi avlod ishtirokida davom etishi hamda milliy qadriyatlarimizga asoslangan san’at yo‘lida turli ko‘rik-tanlov va festivallar tashkil etilishi hammamizni quvontiradi, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Toshpo‘lat Matkarimov. — “Qizilqum oltin merosi” folklor festivali ham ana shunday e’tirofga loyiq san’at bayrami bo‘ldi, desam yanglishmayman. Ayniqsa, jamoalarning chiqishida Navoiy viloyatidagi hududlar aholisining o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari aks ettirilishi festival ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, ushbu san’at bayramida yosh avlod vakillariga ham alohida e’tibor berilgani, ularning ijrosidagi folklor namunalari e’tirofga loyiq. Bu yoshlarimizning milliy qadriyatlarimiz ruhida ma’naviyati yuksak bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qizilqum oltin merosi” folklor festivalining uchinchi kuni ham ko‘tarinki ruhda o‘tdi hamda his-hayajonga boy bo‘ldi. Shu kuni festival g‘oliblari va sovrindorlari aniqlandi. Yakunda Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo” bolalar va kattalar folklor-etnografik ansambllari 1-o‘ringa munosib ko‘rildi. Bolalar jamoalari o‘rtasida Zafarobod qo‘rg‘onidagi “Yoshlik” madaniyat va sport markazining “Shodlik” ansambli 2-o‘rin, “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba qaldirg‘ochlari” ansambli 3-o‘rinni egalladi. Kattalar folklor-etnografik ansambllari o‘rtasida “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba” ansambli 2-o‘rin, “Navro‘z” klubining “Do‘stlik” ansambli esa 3-o‘ringa loyiq topildi.

— Folklor-etnografik ansamblimiz 2009-yili tashkil etilgan va Zarafshon shahrida o‘z o‘rniga ega. Jamoamizda 5 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar yig‘ilgan. Hududimizda turli millat vakillari istiqomat qiladi. Shuning uchun har bir elat urf-odatlari, an’analarini san’atimizda ifoda etishga harakat qilamiz. Milliy san’atimiz va folklorimizni aholi o‘rtasida keng targ‘ib etamiz. Turli bayramlardagi chiqishimiz orqali vohadoshlarimiz e’tirofiga sazovor bo‘lib kelyapmiz. Ko‘plab ko‘rik-tanlov va festivallarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallaganmiz. Ushbu festivalda ham milliy san’atimizni yuksak darajada namoyish etib, g‘olib bo‘ldik, — deydi Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo” folklor-etnografik ansambli badiiy rahbari Abrorjon Faxriddinov.

Festival yakunida g‘olib va sovrindorlarni tantanali taqdirlash marosimi folklor-etnografik ansambllarining gala-konsertiga ulanib ketdi. Qizilqum kengliklarida yana bir bor milliy san’atimiz namunalari yangradi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi — amalda

MEHMON KELSA, BARAKA HAM KELADI

BMT ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 200 millionga yaqin kishi sayyohlik sohasida mehnat qiladi. Undan tushayotgan daromad 1 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Sayyohlar soni esa har yili 4-5 foiz ko‘payib, boshqa davlatlarga safar qiluvchilar soni 1 milliarddan oshadi. Qolaversa, hozir dunyoda yaratilayotgan har 10 ish o‘rnining bittasi aynan turizm sohasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizda kelgusi yetti yillikda xorijlik sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan sayyohlar sonini 3 millionga oshirish maqsad qilingan.

Ma’lum qilinishicha, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 5,7 million chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yildagiga nisbatan 16,33 foiz oshgan.

So‘nggi yillarda Surxondaryoda ham turizm sohasi yanada rivojlanmoqda. Turizmga e’tibor ortishi natijasida viloyatda ziyorat, eko va etnoturizm kabi ko‘plab yo‘nalishlar ommalashyapti. Vohada zamonaviy turizm istiqbollaridan biri betakror tabiiy maskanlar, ekoturizm, milliy an’analar, taomlar va sarxil mevalar sanaladi.

Denov tumanidagi Sina qishlog‘ida an’anaviy tarzda o‘tkazilib kelinayotgan milliy taomlar sayli hududga xorijlik va mahalliy sayyohlar soni ortishiga zamin yaratmoqda. Baland tog‘lar bag‘rida joylashgan Sina qishlog‘ining turizm salohiyati juda yuqori. Musaffo havosi, o‘ziga xos fusunkor tabiati sabab mazkur hududga sayyohlar ko‘p keladi. Sinada milliy taomlar sayli tashkil etilishi ham bejiz emas. Bu qishloq azaldan pazandalik san’ati bilan mashhur. Tadbir hududning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, milliy urf-odat va an’analarni mehmonlarga keng namoyish etish hamda Sina qishlog‘ini sayyohlarning sevimli maskanlaridan biriga aylantirish maqsadini ko‘zlagan.

— Ushbu sayilning navbatdagisida ham viloyatning qadim va hozirgi kundagi o‘ziga xos taomlari ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Milliy uslubda bezatilgan pavilyonlarda mohir pazandalarning turli taomlar tayyorlash bilan bog‘liq uslub, udum va an’analari keng namoyish etildi, — deydi Denov tumanidagi “Fayzobod” MFY xotin-qizlar faoli Gulimoh Meliboyeva. — Xorijdan kelgan sayyohlarga non, patir va somsaning 20 dan ziyod turi hamda tandir kabob, go‘jali osh va boshqa taomlarni tayyorlash sirlari namoyish etildi.

Milliy taomlar saylida viloyatning turli hududlariga xos taomlar ko‘rgazmadan joy oldi. Sayilda ishtirok etgan xorijlik mehmonlar ham bu taomlar mazasini tatib ko‘rib, ularga baho berdi.

— O‘ylaymanki, biz bu yerlarni ko‘rish uchun yana qaytib kelamiz. Chunki O‘zbekistonning har bir hududi bunga loyiq. Men uchun juda yoqimli sayohat bo‘ldi. Bu yerda sayyohlar uchun rejalashtirilayotgan loyihalar bilan tanishdim. Shuning uchun men yana qaytib, uning qanday o‘zgarganini ko‘rishni istayman. Bizni yaxshi kutib olishganidan mamnunmiz. Bu yerda turli taomlarni tatib ko‘rdim. Menga, ayniqsa, osh juda manzur bo‘ldi. Bundan tashqari, o‘zbek milliy taomlaridan manti va somsa juda yoqdi, — deydi fransiyalik Tibo Dimbua.

Turizm qo‘mitasi tomonidan Sinaga turizm qishlog‘i maqomi berilgani haqidagi sertifikat topshirildi. Shuningdek, “Eng yaxshi milliy taom”, “Eng yaxshi oshpaz” va “Eng mazali taom hududi” kabi nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi.

Ma’lumotlarga qaraganda, jahon turizm va sayohat ekspertlari O‘zbekistonni yaqin kelajakda sayyohlar oqimi yanada ortishi kutilayotgan besh davlat qatoriga qo‘shgan. Mamlakatimizda keyingi 10 yilda turizm yiliga 7 foizdan o‘sib borishi bashorat qilinmoqda. Sohaning yanada rivojlanishi esa O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlari yaratilishi, eksport va yalpi ichki mahsulot hajmi yuksalishiga xizmat qilib, turizmdan kelayotgan daromad mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni, aholi turmushi farovonligini ta’minlashga imkon berayotir.

* * *

Respublikadagi anorzorlarning uchdan bir qismi Surxondaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Sohaga ilmiy yondashuv bog‘dorchilikda anorning daromad cho‘g‘i nisbatan baland ekanini amalda namoyon etish imkonini berdi. Ilgari 1 gektar anorzordan 10-15 tonna hosil olingan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligining ilm-fan bilan integratsiyalashuvi natijasida bugunga kelib, 35-40 tonnagacha anor yetishtirilmoqda.

2021-yil 1-2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan davlatimiz rahbari Sherobod tumanida bo‘lib, anorchilik sohasini ilmiy asosda rivojlantirish, ayni yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, yangi mahalliy navlarni yaratish, yuqori hosildorlikka erishish, anorning eksport hajmini, daromad miqdorini yanada oshirish yuzasidan aniq vazifalarni belgilab bergan edi. Vazifalar ijrosi va samarasi mahsuli sifatida anor chinakam ma’noda Sherobod tumanining tashrif qog‘oziga aylandi.

Bu jihatlar shu kunlarda Sherobodda o‘tkazilgan anor festivali doirasida tashkil etilgan ko‘rgazmada ham ta’kidlandi.

Vohadagi anorchilarni bir manzilda jamlagan sayilda turli nominatsiyalar bo‘yicha tanlov e’lon qilindi. Mevalar hakamlar hay’ati tomonidan baholab borildi. Anorchilik yo‘nalishida “Eng faol xonadon” nominatsiyasi “Majnuntol” mahallasi vakiliga, “Eng katta anor — 2024” nominatsiyasi “Sherobod toza bog‘i” bog‘dorchilik fermer xo‘jaligiga, “Eng mazali anor navi” nominatsiyasi “Rasulov Toji” MCHJ rahbariga berildi.

— “Gulobi”, “Toshqo‘rg‘on”, “Gayzara”, “Qora dona” anor navlari uzoq muddat saqlanish xususiyati bilan xaridorlar e’tiborini qozonmoqda, — deydi bog‘bon Nazira Choriyeva. — Eng muhimi, bu sayillar bizga bozor topishda, hamkorlik va tajriba olishda muhim bo‘lyapti.

* * *

Yilning o‘tgan davri mobaynida Surxondaryo viloyatiga 80 ta davlatdan 52 mingdan ortiq xorijlik sayyoh kelgan. Kelgusi yil esa vohaga 100 ming chet ellik va 1 million 800 ming mahalliy sayyohni jalb etish rejalashtirilgan. Buning uchun vohaning turistik salohiyatidan yanada oqilona foydalanish borasida qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Viloyatning so‘lim go‘shalaridan biri Boysun tumanida an’anaviy tarzda tashkil etib kelinayotgan olma sayli ham ichki va tashqi turizmni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Tashkil etilgan olma sayli Boysun tumanida yetishtirilgan mevalarning eng sara namunalarini taqdim etish uchun mehmonlarga o‘z quchog‘ini ochdi. Unda vohaning barcha tumanlaridan, shuningdek, xorijiy davlatlar va viloyatlardan ham mehmonlar tashrif buyurdi. Tadbirda 10 ga yaqin olma turi namoyish etildi.

— Boysun tumanida yetishtirilgan olmaning dovrug‘i olamga ketgan, — deydi boysunlik bog‘bon Bahrom Eshmurodov. — O‘tkazilayotgan sayillarga bobodehqonlar olmaning eng yaxshi navlarini keltirdi. Taklif etilgan mutaxassislar tadbir ishtirokchilariga olma yetishtirish istiqbollari, uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berdi.

Yurtda saxovatli kuz fasli hukmron. Hosil mo‘l, bozorlar to‘kin. Ne’matlarning eng yaxshisi bo‘lgan tinchlik esa ana shu sayillaru festivallarga asos. Sayillar va festivallar esa mamlakat maftunkorligiga dalil va tashrif qog‘ozi. Buning ortidan iqtisodiyot ham yuksala borishi shubhasiz.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3959.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 01:00 Topshirildi — 01:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05